

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA O'QUVCHI YOSHLARNI TA'LIM-TARBIYA OLISHLARIDA MAKTABNING O'RNI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7810291>

Baynozova O'roloy Odinayevna

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani

34-umumiy o'rta ta'lim maktabi MMIBDo'rinbosari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonni va uning buyuk istiqbolini isloh etilayotgan ta'lim-tarbiya, ilm-fan va yuksak madaniyat ustunlarisiz tasavvur qilib bo'lmashligi, maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi, ta'lim-tarbiya tizmini tubdan isloh qilishga juda katta e'tibor qaratilayotganligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, ta'lim-tarbiya, islohotlar, ilm-fan, yuksaltirish, maktab, rivojlantirish, munosabatlar, imkoniyatlar.*

Davlatimiz rahbarining 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va shu orqali xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida ta'lim-tarbiya tizmi haqida so'z yuritib "Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizmidan boshlanadi" degan konseptual g'oyani ilgari surdilar. Mazkur g'oya asosida maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi, ta'lim-tarbiya tizmini tubdan isloh qilishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bugun biz misli ko'rilmagan islohotlar, har bir soha va tarmoqlarda yangilanishlar yuz berayotgan tarixiy bir davrda yashayapmiz. Bu esa o'z navbatida har birimiz uchun yon-atrofdagi munosabatlarga nisbatan dahildorlik hissimizni yana-da oshirishga xizmat qiladi.

Yangilanayotgan va Uchinchi Renessansga qadam qo'yayotgan Yangi O'zbekistonni va uning buyuk istiqbolini isloh etilayotgan ta'lim-tarbiya, ilm-fan va yuksak madaniyat ustunlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yangilanayotgan va Uchinchi Renessansga qadam qo'yayotgan Yangi O'zbekistonni va uning buyuk istiqbolini isloh etilayotgan ta'lim-tarbiya, ilm-fan va yuksak madaniyat ustunlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi Zotan, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasini, xususan, ta'limning asosiy va hal qiluvchi bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limi tizmi faoliyatini yana-da rivojlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish, murabbiy va pedagoglar mehnatini munosib rag'batlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya, ilm-fan va madaniyat sohasini uzviy rivojlantirish va ularni doimiy takomillashtirish ishlari davlat siyosatining asosiy va ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanmoqda.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgandan so'ng mamlakatimizda milliy ta'lim tizimidagi tub islohotlar 1992 yilda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi birinchi qonun asosida boshlandi. Qonun, avvalo, milliy ta'lim tizimida ilgaridan mavjud ijobiy jihatlarni, istiqloq davrida jamiyatni ma'rifiy va ta'lim-tarbiyaviy bo'shliqdan omon saqlab qoldi. Ta'lim-tarbiya sohasida vujudga kelishi muqarrar ma'rifiy-g'oyaviy bo'shliqning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini endi mustaqillikka erishgan. O'zbekiston Respublikasi jamiyati juda teran his qilib va anglab etgan edi. Ana shu g'oyaviy xavfning oldi olinganligi dastlabki “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning huquqiyamaliy ahamiyatini favqulodda oshirib yubordi. Ayni paytda, qonun sobiq sovet totalitar tizimini mafkurasi illatlarni anglab olishimizga va shu orqali eski tizimdan yangi demokratik tizimga o'tishning ma'rifiy-g'oyaviy ko'prigiga aylandi.

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo, tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy «Bo'stonul-orifin» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: «Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi», - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. «Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo

o'zing amal qil», - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar.

O'qituvchi tomonidan o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning quyidagi asosiy mezonlari mavjud:

1. Har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsин, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.

3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik, bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar etkazmaydigan tarzda bartaraf etish.

4. Ta'limda «muvaqqiyat muhitini» tashkil etish, bolaga o'qishda muvaqqiyat qozonishiga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O'quvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.

5. O'quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim-o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta'lim texnologiyasida har bir o'quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O'quvchi-o'qituvchi hamda o'quvchi-o'quvchi hamkorligi ko'zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2017. - 6-son.

2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.